

WASVASA



Bo'laqol!

Yo'q!
Men... Men buni
qilmasligim kerak.
Bu gunoh!



Gunoh ish oldidan
shayton vasvasasi

VASVASA

Faqat bir martta...
Hech nima
qilmaydi.

Bu gunoh!
Men buni
qilmayman!

Lekin seni hech
kim ko'rmayaptiku!

VASVASA

Kelaqol
keyin tavba
qilib olasan

Bu bor yo'g'i
kichik gunohku...




Mayli...
Faqat bir martta.
Keyin tavba qilib
olaman

VASVASA


Albatta...
Keyin tavba
qilib olasan...

Va'da beraman
Hammasi zo'r
bo'ladi...



**MEN ALDANDIM
ROBBIM YORDAM
BER!**

AAAAAAA



Hech kim séni
menga ergashishga
undamadi, sen o'z
nafsingga ergashding!
Albatta buni hammasiga
o'zing javob berasan!
HA HA HA HA

“Ey, iymon keltirganlar!
Islomga to‘lig‘icha kiring.
Va shaytonning izidan
ergashmang. Albatta, u
sizga ochiq dushmandir.”

(Baqara surasi, 208-oyat)

manfaatli

Yaxshilikni niyat qilib boshlamoqchi bo'lgan har qanday ishingni boshida shayton juda qattiq vasvasa qiladi.

Toki bu yo'ldan qaytib ket. Shuning uchun ko'p xayrli ishlarning eng qiyin qismi - boshlab olish.

Boshlaganingdan keyin endi niyatningni buzishga harakat qiladi, toki amalingning biror qiymati qolmasin. Axir amallarning buyuk yo'kchikligi niyatlarga qarab o'lchanadi. Uni ham qilolmasa endi atrofingdagilar orqali xujumga o'tadi, toki sen ruhan sinib shu yo'ldan voz kech. Xullas shayton hech qachon to'xtamaydi. Agar biz uning vasvasalariga qulq solib o'tiraversak, uning oson o'ljalariiga aylanamiz.

Odam bolasi borki shayton uni o'ziga o'lja deb biladi, lekin ba'zilari yetib bo'lmas, ba'zilari esa uning burnini ostida bo'ladi.. Usmon ibn Abul Os roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

"Agar (seni shayton namozda yoki qiro'atda vasvasa qilayotganini) his qilsang, Allohdan shayton (yomonligi)dan panoh so'ra va uch marta chap tamoningga tuflab qo'y".
Muslim rivoyati. #Bilasizmi?

Umar roziyallohu anhu aytdilar:

«Shaytonning surriyoti to'qqizadir:

1. Zalitun.
2. Vasiyn.
3. Laqus.
4. A'ven.
5. Haffof.
6. Murra.
7. Musavvit.
8. Dosim.
9. Valhon.

• Zalitun - bozordagi sohib bo'lib, ko'rgan narsangga o'rashadi.

• Vasiyn - musibatdagi sohib.

• A'ven - sultonlikdagi sohib.

• Haffof - ichkilidagi sohib.

• Murra - surnay chalgandagi sohib.

• Laqus - o't-olovdagi sohib.

• Musavvit - xabarlar sohibi.

*Insonlar u tarqatgan xabarni og'izdan-og'izga olib yurishadi-da, u xabarning aslini topa olmaydilar.

• Dosim - uylar sohibi.

*Kishi qachon manziliga kirsa, salom ham berdirmaydi, Allohnning ismini ham zikr ettirmaydi. Va oiladagilarning oralariga nizo solib, taloq, xulu', urishish kabi ishlarni keltirib chiqaradi.

• Valhon - u tahorat, namoz va ibodatlarda vasvasa qiladi

- أَعُوذُ بِاللَّهِ مِنَ الشَّيْطَانِ الرَّجِيمِ

Quvilgan shayton yomonligidan Alloh taolodan panoh so'rayman! #Ajoyib_insonlar -

Vasvasa

Abu Hozimning huzuriga bir kishi kelib: "Shayton oldimga keladi-da: "Xotiningni taloq qilding", deb vasvasa qiladi. Shubhalanib qolaman", dedi. Abu Hozim unga qarab: "Uni taloq qilmaganmiding?"

dedilar. U: "Yo'q", dedi. "Kecha o'zing mening oldimga kelib, xotiningga ko'z oldimda taloq qo'yaganmiding?" dedilar Abu Hozim. Haligi kishi: "Allohga qasamki, oldingizga faqat bugun kelib turibman va ayolimni birorta yo'l bilan ham taloq qilganim yo'q", dedi. Shunda Abu Hozim unga: "Agar shayton oldingga kelib yana vasvasa qilsa, hotirjam bo'lgin-da, menga qasam ichganingdek unga ham qasam ich(ib ayolingni taloq qilmaganingni ayt)", dedilar.

Ibn Javziy. "Axbaarul azkiyaa".

Gohida inson vasvasaga tushib qolsa, mana shunday olimlarga muhtoj bo'ladi. Vasvasa

"Ey iymon keltirganlar! Islomga to'lig'icha kiring. Va shaytonning izidan ergashmang. Albatta, u sizga ochiq dushmandir."

Baqara surasi, 208-oyat

"Ey mo'minlar, shaytonning izidan ergashmanglar! Kim shaytonning izidan ergashsa, bas, albatta (shayton) buzuqlik va yomonlikka buyurur..."

Nur surasi, 21-oyat

Manba:manfaatli
Tuzuvchi: pdf_book_uz